

VI SINF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Og'zaki nutq va tinglab tushunish | 6.OT

Tushunish va muloqot

- 6.OT.1** sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar asosida turli shakldagi hamkorlik ishlarida samarali ishtirok eta oladi.
- 6.OT.1.a:** kerakli material bir necha kun oldin taqdim qilinganda uni o'qib, o'rganib, tayyorlangan muhokamalarda ishtirok eta oladi.
- 6.OT.1.b:** muhokamalarda oldindan kelishilgan shartlarga (navbat bilan so'zlash, vaqtga amal qilish) amal qila oladi.
- 6.OT.1.d:** muhokama etilayotgan matn, mavzu, masala yuzasidan berilgan savollarga javob berish maqsadida nutqiga izohlar qo'sha oladi.
- 6.OT.2** OAVlarda turli formatlarda (og'zaki, vizual) berilgan ma'lumotni (yosh doirasida) tushuna oladi, sharhlay oladi hamda ular asosida nutq so'zlay oladi.
- 6.OT.3** nutqdagi maqsadni, g'oyani aniqlay oladi.

Bilim va g'oyalarni taqdim qilish

- 6.OT.4** nutqi davomida kerakli ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy tilning asosiy me'yorlariga amal qila oladi; auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rната oladi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tuza oladi.
- 6.OT.5** ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida berilgan qo'shimcha savollarga javob bera oladi.
- 6.OT.3** turli vazifalarni bajarish ketma-ketligini tushuntirish, qayta bayon qilish, turli ma'lumotlarni yetkazish maqsadida nutq yarata oladi.

O'qish savodxonligi | 6.O'S

Matnga kirish hamda ma'lumot/mulohazalar bilan ishlash

- 6.O'S.1:** matn uslubini bir-biridan farqlay oladi (publitsistik, badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop).

- 6.O'S.2:** matnda (shu jumladan, jadval va grafik ko'rinishidagi ma'lumotlar berilgan matnlarda ham) ochiq keltirilgan ma'lumotlarni topa oladi.
- 6.O'S.3:** matnning asosy maqsadi va g'oyasi ochiq ko'rinib turganda uni aniqlay oladi.

Ma'lumot/mulohazalarni talqin qilish va uyg'unlashtirish

- 6.O'S.4:** turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qiy oladi.
- 6.O'S.5:** matndagi tanish (chastotasi yuqori) so'zlarning asl va kontekstual ma'nosini ma'nosini tushuna oladi.
- 6.O'S.6:** matnning bir qismini o'qish asnosida uning nima haqida ekanini taxmin qila oladi va taxminlarini izohlab bera oladi.
- 6.O'S.7:** matnda ochiq tarzda berilgan ma'lumot asosida tuzilgan savollarga javob bera oladi, o'zi ham savollar qo'ya oladi.
- 6.O'S.8:** matnda yopiq tarzda berilgan ma'lumotni (bir gap doirasida berilganda) tushuna oladi.
- 6.O'S.9:** matnning qismlarini (kirish, asosiy qism, xulosa) ketma-ketlikda (ular aralash holda berilganda yoki aniq chegarasi olib qo'yilganda) joylashtira oladi.
- 6.O'S.10:** matnga mos sarlavha, tagsarlavhalarni tanlay oladi yoki o'zi taklif eta oladi.
- 6.O'S.11:** matndagi ma'lumotlar asosida (har bir ma'lumot asosida alohida) xulosalar chiqara oladi.

Mulohaza yuritish va baholash

- 6.O'S.12:** matn kimlar uchun ekanini taxmin qila oladi, o'z taxminlarini asoslash uchun matndan foydalanadi.
- 6.O'S.13:** matndagi so'z, ibora yoki maqolning nima maqsadda qo'llanganini, qanday vazifa bajarayotganini tushuntirib bera oladi.
- 6.O'S.14:** matnga tanlangan rasmlarning matn ma'nosiga qay darajada ta'sir qilayotganiga baho bera oladi.

Yozma nutq | 6.YN

Matn yaratish

- 6.YN.1** maqsadni qo'llab-quvvatlovchi dalillarni qo'llagan holda argumentlar yoza oladi.
:

- 6.YN.1.a:** maqsadini tushuntira oladi.
- 6.YN.1.b:** maqsadni qo'llab-quvvatlovchi so'z, ibora, maqollarni tanlay oladi.
- 6.YN.1.d:** boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni dalil sifatida keltira oladi.
- 6.YN.2** mavzuni o'rganish, g'oyalarni yetkazish, konsepsiya va ma'lumotlarni tanlash, : tahlil qilish maqsadida axboriy, tasviriy hamda izohlovchi matnlarni yoza oladi.
- 6.YN.2.a:** mavzuni taqdim etadi; ta'riflash, taqqoslash va sabab-qoibat strategiyalarini qo'llagan holda g'oyalar va tushunchalarni yetkazib bera oladi.
- 6.YN.2.b:** tushunishga yordam berishi nuqtayi nazaridan qo'shimcha unsurlar (sarlavha, tagsarlavha, jadval)dan foydalana oladi.
- 6.YN.2.d:** matnni tegishli faktlar, hayotiy misollar, tafsilotlar, ta'riflar bilan boyita oladi.
- 6.YN.2.e:** taqdim etilgan ma'lumotdan kelib chiqadigan xulosaviy qismni matnga kirita oladi.
- 6.YN.2.f:** uslubga xos so'zlarni ajrata oladi.
- 6.YN.3** voqea-hodisalar badiiy vositalar bilan boyitilgan hikoyaviy matnlar yarata oladi. :
- 6.YN.3.a:** hikoya qahramonlari hamda makonni tanishtira oladi.
- 6.YN.3.b:** voqea hodisalarning zamoni yoki makoni o'zgarayotganini aks ettira oladi.
- 6.YN.3.d:** hikoyaning xulosa qismini yoza oladi.
- 6.YN.4** asosiy husnixat qoidalariga (harflarni bir-biridan hamda katta kichilikligini ajrata : olish imkoni mavjud holda) amal qilgan holda yoza oladi.
- 6.YN.5** adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda yoza oladi. :
- 6.YN.6** asosiy imlo, punktuatsion (qo'shtirnoq, vergul, nuqta, undov, so'roq) qoidalar(i)ga : amal qilgan holda yoza oladi.

Matnni tahrirlash va taqdim qilish

- 6.YN.7:** kattalarning ko'rsatmalari hamda yordami bilan qoralama yoza oladi.
- 6.YN.8:** kattalarning ko'rsatmalari asosida o'z xatolarini aniqlab ularni to'g'rilagan holda matnni tahrirlab, qayta ishlay oladi.
- 6.YN.9:** yozgan matnini turli shakllarda (kitobcha, flayer, devoriy gazeta, jadval) taqdim qila oladi.

Tadqiqot natijalarini yetkazish

- 6.YN.10:** bir necha manbalarga tayangan holda bir mavzu yuzasidan turli qarashlarni jamlay oladi.

6.YN.11: biror mavzu doirasida to'plagan ma'lumotlariga tayangan holda chiqargan xulosalarini yozma bayon qila oladi.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

- 6.LK.1:** so'zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo'shimchani farqlagan holda to'g'ri yoza olish
- 6.LK.2:** tub va yasama so'zlarni farqlay olish va nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.3:** asosga qo'shib, so'zga yangi va qo'shimcha ma'no yuklovchi yoki o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'zga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalarni farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.4:** qo'shimchalarning shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noliligini bilish, nutqda qo'llay olish
- 6.LK.5:** unli va undosh harflar imlosi, qo'sh va qator kelgan unlilar va undoshlar talaffuzi va imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.6:** so'zlarga qo'shimchalar qo'shishi natijasida, shuningdek, ayrim so'zlar talaffuzi bilan bog'liq sodir bo'ladigan tovush hodisalari imlosini bilish va yozma nutqda qo'llay olish
- 6.LK.7:** so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalari, atoqli otlar imlosiga rioya qila olish
- 6.LK.8:** so'z turkumlarini o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.9:** nom bildiruvchi so'zlarning o'ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.10:** belgi bildiruvchi so'zlarning o'ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.11:** narsalarning miqdori va tartibini bildiruvchi so'zlarning o'ziga xos belgilarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish
- 6.LK.12:** harakat va holatning belgisini bildiruvchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish
- 6.LK.13:** harakat va holatni ifodalovchi so'zlarning o'ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish
- 6.LK.14:** tasviriy ifodalarni bilish va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- 6.LK.15:** lboralarni farqlash va ulardan nutqiy vaziyatlarda to'g'ri foydalana olish
- 6.LK.16:** lug'at turlarini farqlash va ulardan foydalana olish (imlo, izohli va tarjima lug'atlari)
- 6.LK.17:** sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish
- 6.LK.18:** matn va uning turlari (hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni)ni farqlash; kichik hajmli matnlarni yarata olish
- 6.LK.19:** tinish belgilari (nuqta, so'roq, tire, qo'shtirnoq va undov)ni to'g'ri qo'llash
- 6** so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalari, atoqli otlar imlosiga rioya qila olish

VI SINF
(136 soat)

I BO'LIM. MEN, SEN, U VA ULAR
(10 soat)

TIL – MULOQOT VOSITASI
(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi ekanini tushuntirish, muloqot odoblari yuzasidan ko'nikma hosil qilish.

Tinglab tushunish: tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera oladi.

Og'zaki nutq: berilgan mavzu yuzasidan fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalay oladi.

O'qib tushunish: ikki xil uslubda yozilgan matnlarni taqqoslab, xulosasini ayta oladi; she'rdan muallif maqsadini aniqlay oladi.

Yozma nutq: berilgan ko'rsatma asosida matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: badiiy tasvir vositalari va ulardan foydalanish; iboralar; og'zaki va yozma nutqning imkoniyati; nutq uslublari; asos va qo'shimchalar; tinish belgilari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

QISQACHA TARJIMAYI HOLIM
(5 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchini o'zi va faoliyati haqida izchil gapirish va yozishga o'rgatish, buning kelajakdagi faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanini anglatish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni aniqlay oladi.

Og'zaki nutq: rasm asosida berilgan savollarga munosabat bildiradi.

O'qib tushunish: berilgan matndan muallif maqsadini aniqlay oladi; matnda qo'llangan til birliklari orqali matn turini aniqlay

oladi.

Yozma nutq: berilgan ko'rsatmalar asosida o'z tarjimai holini yoza oladi.

Lingvistik bilim: tarjimai hol va uning yozilish tartibi; muhim ma'lumotlarni ajratish; matn turlari; ko'pnuqtani qo'llash.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat)

II BO'LIM. TABIAT NE'MATLARI **(15 soat)**

SHIFOXONA **(4 soat)**

Nutqiy mavzuning g'oyasi: shifoxonalar va ularning turlari haqida ma'lumot berish, o'quvchining tibbiy savodxonligini rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga targ'ib qilish.

Tinglab tushunish: monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi; mavzuni aniqlash uchun savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: berilgan infografik ma'lumotlarni og'zaki aytib bera oladi;

O'qib tushunish: matndan ko'zlangan maqsadni anglay oladi; matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini tushuna oladi.

Yozma nutq: berilgan yo'riqnoma asosida matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: tibbiyot sohasiga oid til birliklari; so'z va uning ma'nodoshlari; undalma.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

GLOBAL ISISH **(4 soat)**

Nutqiy mavzuning g'oyasi: global isish va yuzaga kelayotgan ekologik muammolar haqida ma'lumot berish, buni oldini olish chora-tadbirlari haqida xabardor qilish, tabiatni asrashga doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Tinglab tushunish: nutqiy mavzu doirasida bildirilgan fikrlarni tinglab, munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: rasm asosida savollarga javob bera oladi.

O'qib tushunish: grafik ko'rinishdagi axborotlarni o'qib tushuna oladi; berilgan matndagi sabab va oqibatlarni aniqlay oladi.

Yozma nutq: dalil va tafsilotlar bilan axborot matni yoza oladi.

Lingvistik bilim: ko'rsatish olmoshlari; sifat darajalari; atoqli otlar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchilarga chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari haqida ma'lumot berish, chiqindilarni saralash, saqlash, har qanday joyga tashlab ketmaslik yuzasidan tavsiyalar berish, tabiat muhofazasiga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqini tinglab, munosabat bildiradi; tinglagan nutqi yuzasidan aniqlashtiruvchi savol bera oladi.

Og'zaki nutq: tayyorlagan loyihasi adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon qila oladi.

O'qib tushunish:

Yozma nutq: o'z biznes rejasini tuza oladi; fikrlarini tartiblab, loyiha tayyorlay oladi.

Lingvistik bilim: fe'llarning munosabat shakli; gap oxiridagi tinish belgilari (ko'pnuqta).

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (1 soat)

III BO'LIM. SOG' TANDA SOG'LOM AQL

(11 soat)

KO'Z NURINI ASRAYLIK

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: ko'zning tana a'zosi sifatidagi faoliyati haqida ma'lumot berish, ko'zni asrash, me'yorida telefon va qurilmalardan foydalanishga doir bilim va ko'nikmalar shakllantirish.

Tinglab tushunish: jonli nutqning umumiy mavzusi yuzasidan

tilga olingan tafsilotlarni belgilay oladi.

Og'zaki nutq: rasm asosida berilgan savollarga javob bera oladi; chizma asosida nutqiy mavzuga oid fikrlarini tartiblab ayta oladi.

O'qib tushunish: berilgan matn qismlariga mos sarlavha qo'ya oladi; matnni qismlarga ajratib tahlil qila oladi.

Yozma nutq: rasm asosida bog'lanishli matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: kichik sarlavhalar tanlash; iboralarni qo'llash; ko'rsatish olmoshlari; fe'lining zamon va shaxs-songa oid tasnifi; kesim va uning ifodalanishi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

JIGAR – ENG MEHNATKASH A'ZO

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: jigarining tana a'zosi sifatidagi faoliyati haqida ma'lumot berish, jigar kasalliklari va ularni oldini olishga doir bilim va ko'nikmalar shakllantirish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqini aniqlashtiruvchi savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: guruhdagi muhokamalarda oldindan kelishilgan shartlarga (navbat bilan so'zlash, vaqtga amal qilish, mavzudan chiqmaslik kabi) amal qila oladi.

O'qib tushunish: nutqiy mavzuga oid tanishgan ikki xil matni asosida tanqidiy munosabat bildiradi; matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni farqlay oladi.

Yozma nutq: berilgan rasm va yo'riqnoma asosida esse yoza oladi.

Lingvistik bilim: bog'lovchi, yuklama, ko'makchilarni aniqlash va farqlash; iqtibos qo'llash.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

IV BO'LIM. KASBIM – FAXRIM

(15 soat)

DEHQON YURTNI BOQADI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: dehqonchilikning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatlari haqida to'xtalish, sohaga innovatsiya olib kirishga doir ma'lumotlar berish, o'quvchilarni qishloq xo'jaligi sohasida qiziqtirish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqida tinglagan ma'lumotlardan xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: infografikani tasvirlab aytadi; badiiy asar namunalarini ifodali o'qiy oladi; bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni aniqlay oladi; ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana oladi.

O'qib tushunish: ikki uslubda yozilgan matnni taqqoslab, xulosa chiqara oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu asosida berilgan chizma asosida ijodiy matn yoza oladi; yozma matnida badiiy uslubga xos so'zlardan foydalana oladi.

Lingvistik bilim: publitsistik uslub; badiiy uslub; tasviriy ifoda; undov so'zlar.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

KOMPYUTER GRAFIKASI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: kompyuter grafikasi sohasining jadal rivojlanib borayotgani, hozirda eng talabgir kasbga aylangani haqida ma'lumotlar berish, o'quvchini kasbga yo'naltirish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqidan xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: kerakli materialni oldindan o'qib, o'rganib, tayyorlangan holda muhokamalarda ishtirok eta oladi.

O'qib tushunish: matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni tushuna oladi; matn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni tushuna oladi.

Yozma nutq: berilgan e'lon matnlarini tahrir qila oladi; nutqiy mavzu doirasida e'lon matni yoza oladi.

Lingvistik bilim: olinma so'zlar; qo'shma otlari imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

TELEBOSHLOVCHI BO'LIB QOLSAM

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchini boshlovchilik, suxandonlik kasblari bilan tanishtirib, ularda ravon so'zlash, hozirjavoblik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirish.

Tinglab tushunish: monologik nutq va suhbatni eshitib, munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: rasm asosida savollarga javob bera oladi; turli kontekst va vazifalarga mos nutq yarata oladi; nutqi davomida o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qiladi.

O'qib tushunish: ilmiy-ommabop uslubda yozilgan matnni o'qib tushuna oladi; matn asosida ma'lumotlarni saralay oladi(to'g'ri/noto'g'ri).

Yozma nutq: berilgan ma'lumotlarni tartiblab, matn yoza oladi; tengdoshlari yozgan matnni tahrir qilib munosabat bildiradi.

Lingvistik bilim: rasmiy va norasmiy uslub; sifat so'z turkumi; yordamchi so'zlar.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

V BO'LIM. YOSH IQTISODCHI **(13 soat)**

IMPORT YOKI EKSPORT **(5 soat)**

Nutqiy mavzuning g'oyasi: import va eksport tushunchalari haqida ma'lumot berish, bu operatsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini tushuntirish, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish.

Tinglab tushunish: tengdoshlari nutqini tinglab, munosabat bildiradi; bildirilgan fikrlardan umumiy xulosa chiqara oladi.

Og'zaki nutq: infografika va diagramma ko'rinishidagi ma'lumotlarni tushunib, gapirib bera oladi; nutqiy mavzu yuzasidan olgan ma'lumotlari asosida so'zlarni izohlab yoza oladi.

O'qib tushunish: matn qismlari va ularga xos birliklarni tushuna oladi.

Yozma nutq: fikrni izchil ifodalab matn yoza oladi; berilgan yo'riqnoma asosida taqdimot tayyorlay oladi.

Lingvistik bilim: matn tuzilishiga doir tavsiyalar; qo'shma sifatlar;

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

SOLIQLARNI TO'LAB BORASIZMI?

(5 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: davlat va jamiyatning iqtisodiy muvozanatida soliqlarning o'rnini tushuntirish, soliqlarni o'z vaqtida, yashirmay to'laydigan faol fuqarolikka targ'ib qilish.

Tinglab tushunish: berilgan monologik nutq yoki suhbatni eshitib tushuna oladi.

Og'zaki nutq: infografik ma'lumotlarni tushunib, savollarga javob bera oladi.

O'qib tushunish: matnda ifodalangan voqea-hodisaga munosabat bildiradi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu doirasida axborot matni yoza oladi.

Lingvistik bilim: sifat darajalari; yozma nutqda sintaktik vositalardan to'g'ri foydalanish; otlarning lug'aviy shakllari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

VI BO'LIM. FAN VA TEXNOLOGIYALAR

(14 soat)

RAQAMLI DUNYO

(5 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: XXI asrda deyarli barcha jabhalar kompyuterlashayotgani, zamonaviy odamlarga bu borada bilim va ko'nikmalar zarurligi haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni kompyuter savodxonligiga targ'ib qilish.

Tinglab tushunish: tinglagan atamalarini to'g'ri talaffuz qila oladi; audiomatndagi ma'lumotlarni izohi bilan bog'lay oladi.

Og'zaki nutq: rasm asosida berilgan savollarga javob bera oladi; rasm va ma'lumotlarni bog'lab, xulosasini ayta oladi.

O'qib tushunish: matn qismlaridan xulosa chiqara oladi; matnning umumiy mazmunini tushuna oladi.

Yozma nutq: turli xil mavzuda yozilgan matnlarni tahrir qilib, o'z munosabatini yoza oladi.

Lingvistik bilim: sohaga oid atamalar; o'z va o'zlashma so'zlar;

hisbelgilar; qisqartma so'zlar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

MENDELEYEV ELEMENTLARI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Mendeleyev va uning buyuk ixtirosi haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni aniq va tabiiy fanlarga qiziqtirish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqini aniqlashtiruvchi savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: nutqiy mavzu asosida berilgan rasm va ma'lumotlarni bog'lab, aytib bera oladi.

O'qib tushunish: matnning umumiy mazmunini tushuna oladi; matndagi so'zlarning kontekstual ma'nosini tushuna oladi.

Yozma nutq: rasmda ifodalangan ma'lumotlarni matn ko'rinishida yoza oladi.

Lingvistik bilim: so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari; ma'nodosh so'zlar; sonlarning imlosi; hisob-o'lchov so'zlari imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

YONG'IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: yong'in va uni keltirib chiqaruvchi omillar, uning oqibatlari haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni yong'in xavfsizligiga doir bilim va ko'nikmalarini oshirish.

Tinglab tushunish: tinglagan fikrlarini aniqlashtiruvchi savol bera oladi.

Og'zaki nutq: rasm asosida savollarga javob bera oladi; belgilarni anglatgan mazmunni izohlay oladi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarni rasm bilan birlashtirib, umumiy xulosa chiqara oladi.

Yozma nutq: muhokama matni yoza oladi; muhokama matnini yaratishda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozishga amal qila oladi.

Lingvistik bilim: ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi va ularning imlosi; muhokama matni.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

VII BO'LIM. TIL VA DIL (15 soat)

HADISLARNING HIKMATI (4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: hadisning nima ekani, uning axloqiy ahamiyati haqida ma'lumot berish, o'quvchilarda hadislar hikmatini anglab, hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqidan umumiy xulosa chiqara oladi; bildirilgan fikrlarga asosli munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: berilgan hadislarini ko'rsatma asosida sharhlab bera oladi.

O'qib tushunish: nutqiy mavzu asosida berilgan kichik matnlarning mazmunini tushuna oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu asosida savol tuza oladi; berilgan matnlarni sharhlab yoza oladi.

Lingvistik bilim: ko'chirma va o'zlashtirma gaplar; matnni sharhlash.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

SAYYOHLARGA "GID"LIK QILSAM-CHI? (4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: O'zbekistonning e'tiborga molik go'shalari, so'lim maskanlari bilan tanishtirish, o'z vatani haqida faxr bilan hikoya qilishga o'rgatish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqidan xulosa chiqarib, so'ralgan ma'lumotlarni to'ldira oladi.

Og'zaki nutq: grafik rasmlar bilan ma'lumotlarni bog'lab, munosabat bildiradi; audiomatn asosida muhokamaga kirisha oladi;

O'qib tushunish: berilgan matnning xatboshilarini aniqlay oladi; xatboshilarga mos sarlavha tanlay oladi.

Yozma nutq: fikrlarini tartiblab, jadval ko'rinishida ifodalay oladi; jadval asosida matn yoza oladi; berilgan yo'riqnoma asosida maqola tayyorlay oladi.

Lingvistik bilim: ma'lumotlarni jadval ko'rinishida berish; tasviriy matn yaratish.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va

iboralar.

PESHTOQDAGI BITIKLAR

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: reklama bannerlari, do'kon va oshxonalarning nomlanishidagi imlo masalasi, tilga hurmat va davlat tiliga doir qonunga amal qilishga yuzasidan bilim va ko'nikmalar berish.

Tinglab tushunish: tinglagan nutqini aniqlashtiruvchi savollar bera oladi.

Og'zaki nutq: reklama matndagi xatolarni topib, munosabat bildiradi; rasm asosida savollarga javob bera oladi.

O'qib tushunish: matn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni aniqlay oladi.

Yozma nutq: berilgan ko'rsatma asosida reklama matni yoza oladi. Yozilgan reklama matnini tahrir qila oladi.

Lingvistik bilim: reklama matni; olinma so'zlar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

VIII BO'LIM. TARIX XAZINALARI

(11 soat)

MINORAYI KALON

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: O'zbekistonning qadimiy shaharlari, me'moriy yodgorliklari, xususan, Buxoro shahri va Minorayi Kalon haqida ma'lumot berish.

Tinglab tushunish: audiomatnning umumiy mazmunini tushuna oladi.

Og'zaki nutq: monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi; berilgan savollarni tushunib, javob bera oladi.

O'qib tushunish: matndagi ma'lumotlarning aniq va to'g'riligi, yaroqliligi, xolis va ishonchililigiga baho bera oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu doirasida to'plagan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalay oladi.

Lingvistik bilim: mundarijadan foydalanish; kitob tanlash; shartli tushunish; mutolaa bilan bog'liq ko'nikmalar; ravishlar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va

iboralar.

BUYUK IPAK YO'LI

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: Buyuk ipak yo'lining tarixiy, iqtisodiy-madaniy ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni izohlay oladi.

Og'zaki nutq: xarita bilan ishlay oladi, u asosida berilgan savollarga javob bera oladi.

O'qib tushunish: berilgan matnning umumiy mazmunini tushuna oladi; matnda keltirilgan argumentlarni tushuna oladi.

Yozma nutq: tasviriy matn yoza oladi; yozilgan matnlarni tahrir qilib, munosabat bildiradi.

Lingvistik bilim: ravishlarni aniqlash; matnlarni qiyoslash; matn uslubi; imlo qoidalari.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

IX BO'LIM. SAN'AT VA MADANIYAT

(11 soat)

MINIATYURA – MO'JAZ SURAT

(5 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: miniatyura san'ati, shu jumladan, kitob grafikasi va xattotlik san'atlari haqida ma'lumot berish, milliy san'at an'analari bilan tanishtirish.

Tinglab tushunish: audiomatndan muallif maqsadini aniqlay oladi.

Og'zaki nutq: tasvirda ifodalangan ma'nolarni tushunib, munosabat bildiradi.

O'qib tushunish: berilgan matndan tanish so'zlarning izohini topa oladi; matn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'nolarni izohlay oladi.

Yozma nutq: kitob mazmuniga mos keladigan sarlavha va muqova tanlay oladi; kitobi uchun ijodiy matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari, fe'llarni to'g'ri qo'llash; sarlavha.

Lugʻat boyligi: nutqiy mavzu doirasida oʻzlashtiriladigan soʻz va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

OQSAROYGA BITILGAN HIKMAT

(5 soat)

Nutqiy mavzuning gʻoyasi: temuriylar davridagi meʼmorlik anʼanalari, xususan, afsonaviy Oqsaroy yodgorligi haqida maʼlumot berish.

Tinglab tushunish: tinglagan maʼlumotlarni rasm bilan bogʻlay oladi; tinglagan soʻzlarini yoza oladi.

Ogʻzaki nutq: rasm asosida savollar javob bera oladi; nutqi davomida mos ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy til meʼyorlariga amal qila oladi; auditoriya bilan koʻz aloqasini oʻrnata oladi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tashkillay oladi.

Oʻqib tushunish: berilgan matnlarning uslubini aniqlay oladi; matnlarda ochiq va yopiq ifodalangan maʼlumotlarni tushuna oladi.

Yozma nutq: badiiy uslubda ijodiy matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: taqlid soʻzlar; badiiy va badiiy boʻlmagan uslub; tavsifiy matn yaratish.

Lugʻat boyligi: nutqiy mavzu doirasida oʻzlashtiriladigan soʻz va iboralar.

X BOʻLIM. HUQUQIMIZ HAQIMIZ

(15 soat)

KONSTITUTSIYA – BOSH QOMUSIMIZ

(4 soat)

Nutqiy mavzuning gʻoyasi: konstitutsiya va qonunlar haqida atroflicha maʼlumot berish, oʻquvchining siyosiy savodxonligini oshirish.

Tinglab tushunish: tinglagan taqdimotlari yuzasidan tanqidiy fikr bildiradi.

Ogʻzaki nutq: berilgan infografik maʼlumotlarni tushunib, aytib bera oladi; taqdimot nutqi tayyorlab aytib bera oladi.

Oʻqib tushunish: berilgan matndagi maʼlumotlarni jadval koʻrinishida ifodalay oladi; infografikada berilgan maʼlumotlarni tushunib, munosabat bildiradi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu yuzasidan tasviriyl matn yoza oladi.

Lingvistik bilim: sohaga oid til birliklari; fe'llarning munosabat shakli, rasmiy uslub.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

DAVLATNI KIM BOSHQARADI?

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: davlat boshqaruv tuzilmasi, prezident, parlament va h.k. haqida ma'lumot berish, o'quvchining siyosiy savodxonligini oshirish.

Tinglab tushunish: audiomatn asosida test topshiriqlarini to'g'ri bajara oladi.

Og'zaki nutq: berilgan infografik ma'lumotlar asosida fikrlarni saralab (to'g'ri/noto'g'ri) ayta oladi.

O'qib tushunish: matndan muallif maqsadini aniqlay oladi; fikrlarini matn asosida asoslab bera oladi.

Yozma nutq: nutqiy mavzu doirasida murojaat xati yoza oladi;

Lingvistik bilim: atamalar yordamida lug'at tuzish; murojaat xatlari; qisqartmalar imlosi.

Lug'at boyligi: nutqiy mavzu doirasida o'zlashtiriladigan so'z va iboralar.

O'Z DEPUTATINGIZNI BILASIZMI?

(4 soat)

Nutqiy mavzuning g'oyasi: deputat kim, qanday vazifalarni bajaradi, qanday vakolatlarga ega? Shular haqida atroflicha ma'lumot berish, o'quvchining siyosiy savodxonligini oshirish.

Tinglab tushunish: nutqiy mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlarga tanqidiy munosabat bildiradi.

Og'zaki nutq: mavzuni taqdim etadi; ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, sabab-oqibat strategiyalaridan foydalangan holda g'oyalar va tushunchalarni yetkazib bera oladi, tushunishga yordam berishi nuqtayi nazaridan qo'shimcha unsurlar (sarlavha, taglavha, grafik chizmalar)dan foydalana oladi.

O'qib tushunish: matndagi voqea-hodisalar (harakatlar, qadamlar) ketma-ketligini ajrata oladi.

Yozma nutq: mavzuni taqdim etadi; ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, sabab-oqibat strategiyalaridan foydalangan holda g'oyalar va tushunchalarni yetkazib bera oladi, tushunishga yordam berishi nuqtayi nazaridan qo'shimcha

unsurlar (sarlavha, taglavha, grafik chizmalar)dan foydalana oladi.

Lingvistik bilim: muhokama matni; soʻz turkumlarini farqlash.

Lugʻat boyligi: nutqiy mavzu doirasida oʻzlashtiriladigan soʻz va iboralar.

Mustahkamlash (1 soat)

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

XI BOʻLIM. OʻQUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(6 soat)

Ushbu soatlarda oʻquvchining yil davomida olgan oʻqib, eshitib tushunish, ogʻzaki va yozma nutqqa oid bilim, koʻnikma va malakalari sinovdan oʻtkazish. Sinov natijalari asosida qoʻshimcha taʼlimiy ishlar amalga oshirish.

Tinglab tushunish va ogʻzaki nutq: sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar boʻyicha turli shakldagi hamkorliklarni boshlay oladi hamda ularda samarali ishtirok eta oladi, boshqalarning fikrlariga asoslanib, oʻz fikrlarini aniq va ravon ifoda eta oladi; soʻzlovchining nuqtayi nazarni, mulohazani isbotlashda ritorikadan qanday foydalanayotganini, nutq davomida soʻz tanlash, ohang tanlash, urgʻu ishlatishini baholay oladi; maʼruzachining argument va dalillarini tushuna oladi.

Oʻqib tushunish: muallif oʻzining maqsadi hamda nuqtayi nazarini qanday usulda yetkazayotgani va bundan matnning xususiyatlaridan qanday foydalanganini baholay oladi; matnda ochiq aytilmagan ikki yoki undan ortiq gʻoyani aniqlaydi, ularning oʻzaro bogʻliqligini tahlil qiladi hamda muallifning maqsadini matn maʼlumotlariga tayangan holda tushuntirib bera oladi.

Yozma nutq: auditoriya, maqsad, uslubni hisobga olgan holda turli shakllardagi (axboriy, tasviriy, ekspozitsion, argumentli, badiiy) matnlarni yarata oladi.

Lingvistik bilim: yil davomida oʻrganilgan lingvistik bilimlarni takrorlash, matnlarni qisqartirish va kengaytirish.

Lugʻat boyligi: yil davomida oʻrganilgan soʻz va iboralar.

Nazorat ishi va uning tahlili (2 soat)

